



MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Toshtemirov Ziyodulla

Guliston Davlat Universiteti talabasi

Turayeva Gulizahro

Guluston davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola aholining ish bilan bandligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari asosida statistik prognozlar tayyorlangan.

Kalit so'zlar: Aholini ish bilan bandligi, mehnat bozori, bozor iqtisodiyoti, ishlab chiqarish, milliy daromad, mehnatga qobiliyatlılar

Kirish

Innovatsion iqtisodiyot shakllanishi davrida yangi tarmoqlar, korxonalar vujudga kelib, ularda mehnat madaniyatiga, malakasiga, professionalligiga, ijodkorligiga ahamiyat berilmoqda. Shu sababli, intellectual mehnatni, ayollarni ish bilan bandligi, uni ko'rsatkichlarini, baholash mezonlarini, mehnat samaradorligini aniqlash, umumiylar tarkibdagi salmog'ini oshirish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ilmiy-metodologik tadqiqotlarda eng dolzarb masalalardan biri bo'lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, agrar mehnat bozorining infratuzilmasi va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalariga oid muammolarni tadqiq etish bo'yicha o'zining alohida hissalarini qo'shgan respublikamiz iqtisodchi-olimlari Sh.R.Xolmo'minov, N.U.Arabovlar o'z asarlarida mehnat bozori infratuzilmasi va uning tarkibiy qismlari o'zaro uzviy bog'liqligini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etgan.

B.Aliyevning ta'kidlashicha, mehnat bozorining samarali amal qilishi uchun, birinchidan ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lib, uning yordamida ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki uni kengaytirish, ikkinchidan, ishlab chiqarish vositalariga ega bo'limgan va ish bilan band bo'limgan kishilarning mavjudligi zarur. Ana shular mehnat bozorining asosiy subyektlari, mehnat bozori ishtirokchilari hisoblanadi.

Mashhur iqtisodchi olim J.M.Keyns o'z asarida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish, xususan, ish bilan bandlik tizimining bir qismi sifatida mehnat bozorini tartibga solish, to'liq bandlikka erishish davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifalaridan biri ekanligi hamda ish bilan bandlik, milliy daromad hamda jamg'arish o'rta sidagi bog'liqlik masalalarining fundamental tadqiqotiga alohida e'tibor qaratgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)



Mehnat bozori bu mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo’lgan va band bo’lmagan qismlari va ish beruvchilar o’rtasidagi munosabatlar hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida “mehnatqobiliyatlarini” xarid qilish-sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, ishchi kuchiga talab va taklif o’rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir. Mehnat bu insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyatidir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlisga murojaatnomasida 2020-yil –“Ilm-mari’fat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilish bilan birga qishloqlarni ham ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim muammolari alohida ta’kidlandi va ularning yechimlari ko’rsatildi : “ Kambag’allikni kamaytirish – alohida tadbirkorlik ruhini uyg’otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to’liq ro’yobga chiqarish, yangi ish o’rinlarini yaratish bo’yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga osirish, demakdir”. Qishloq joylarda ish bilan ta’minalash va yangi ish o’rinlarini yaratish bo’yicha hukumatimiz tomonidan kompleks chora-tadbirlar olib borilyapti, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishida klasterlar va kooperatsiya tizimlari joriy etilyapti. 2019-yilda respublikamizda jami 370 047 ta yangi ish o’rinlari yaratilgan. Bu ko’rsatkich 64,3%i qishloq hududlariga to’g’ri keladi.

Mehnatning intellektuallashishi xodimlarning umumiy texnik madaniyati oshishi, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish jarayonida aniq o’zining o’rnini bilishi, texnologiya qoidalariga qat’iy rioya qilish va yakuniy natijalarni ta’minalash bilan ajralmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion & Recommendations)

Xulosa qilib aytganda, aholini ish bilan ta’minalash bu, fuqarolarning ehtiyojini qondirish bilan bog’liq bo’lgan, qonunlarga zid bo’lmagan va bularga ish haqi keltiradigan faoliyati, bandlikning ahvoli, uning eng muhim xususiyatlari, milliy farovonlik haqida, iqtisodiy rivojlanish sohasida tanlangan yo’lning samarali ekanligini to’g’risidagi xulosa chiqardik.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. –T.: O’zbekiston,2011.-48 bet.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 29.12.2020.
3. Q.X.Abdurahmonov, N.T.Shoyusupova , Aholi ish bilan bandligi to’g’risidagi o’quv qo’llanma, TDIU.: O’zbekiston, 2011.
4. Rustamovich, U. S. (2017). Features of innovative water management in the modernization of economy. TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR), 6(1), 45-53.

НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



5. Умаров, С. (2017). Основные направления инновационного развития водного хозяйства и его поддержка. Экономика и инновационные технологии, (1), 43-50.
6. Umarov, S. R. (1993). Some boundary value problems for elliptic equations with a boundary operator of fractional order. In Doklady Akademii Nauk (Vol. 333, No. 6, pp. 708-710). Russian Academy of Sciences.
7. Umarov, S. R. (1992). On the well-posedness of boundary value problems for pseudodifferential equations with analytic symbols. In Doklady Akademii Nauk (Vol. 322, No. 6, pp. 1036-1039). Russian Academy of Sciences.
8. Toshtemirova Mokhira Makhmud qizi, & Jurakulova Durdona Shuxratovna. (2023). Parasites of the Oral Cavity. Genius Repository, 25, 19–20. Retrieved from <https://www.geniusrepo.net/index.php/1/article/view/176>
9. Rakhmonova Bakhora Kakhorovna, Marupova Madina Khikmatullayevna, & Toshtemirova Mokhira Makhmud kizi. (2023). IMPROVING THE SURGICAL METHOD OF SCAR MICROSTOMY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(9), 300–304. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/5572>
10. Makhammadovna, T. M., & Makhammadaminovna, K. D. (2023). THE COURSE OF MALFORMATION AND CORNEAL EROSION IN TUBERCULOSIS PATIENTS. Open Access Repository, 4(03), 60-66.
11. Кароматов, И. Д., & Гулямов, Х. Ж. (2017). Медицинские вопросы, освещенные в Библии. Биология и интегративная медицина, (4), 55-75.
12. Gulyamov, X. (2023). INTER-ETHNICITY IN THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE. Interpretation and Researches, 1(12). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1314>
13. Xolmurod, S., Saidbek, A., & Qaxxarovna, T. G. (2023). SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI KO'RSATKICHALARINI STATISTIK KUZATISH. Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения, 1(5), 54-56.
14. Jaloliddin G'ulomjon o'g, N., G'ulomjonovna, X. M., & Kaxxarovna, T. G. (2023). O'ZBEKİSTONDA İNNOVATİSYALARGA SARFLANGAN XARAJATLAR STATİSTİKASI. Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения, 1(5), 78-80.
15. Qaxxarovna, T. G. (2023). DON ISHLAB CHIQARUVCHI XALQARO TRENDLAR. XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI, 1(2), 19-23.